IRFAN
AKADEMIYASI
ILM • TA'LIM • TARAQQIYOT


RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILM, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR
UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

OKTABR

TOSHKENT
O'ZBEKISTON



TALABALARNI IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Sulaymonova M.E.

Nizomiy nomidagi O'zMPU mustaqil tadqiqotchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.23296493

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan raqamli ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga joriy etish istiqbollari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha pedagogning kasbiy mahorati va zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan foydalanishning asosiy pedagogik maqsadlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyasi, axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyasi, texnologik innovatsiya.

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы внедрения цифровых образовательных технологий в учебный процесс — весьма актуальная на сегодняшний день тема, — а также уровень профессиональной компетентности педагогов в области информационно-коммуникационных технологий и основные педагогические цели использования современных информационно-технологических средств.

Ключевые слова: образовательные технологии, информационные технологии, компьютерные технологии, технологические инновации.

Abstract. The article examines the prospects of integrating digital educational technologies into the teaching process—a highly relevant topic today—as well as the level of educators' professional competence in information and communication technologies and the primary pedagogical goals of using modern information technology tools.

Keywords: educational technologies, information technologies, computer technologies, technological innovations.

O'zbekiston ta'lim tizimida mutaxassis kadrlarni tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan

uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashni nazarda tutgan holda, oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari sifatida talabalarning fanlar asoslari bo'yicha mustahkam bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda bilim olish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish kabi yo'nalishlarni belgilab berdi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, umuman olganda, erishilgan moddiy va ma'naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasi bo'lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e'tiqod va so'z erkinligi, diniy bag'rikenglik, ijodiy faollik, umuminsoniy qadriyatlar hamda milliy urf-odatlarning hurmat qilinishi va qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularning huquqiy asoslarining yaratilishi yoshlarni mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini obektiv baholashga o'rgatish yo'nalishida o'ziga xos vazifalarni yuklaydi.

Ilgari surilgan g'oyalar, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ko'proq erkin va innovatsion fikrlashga o'rgatish, ularning subyektivligini oshirish, mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchliligini tahlil qilish, eng yangi hamda ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, talabalarning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zaruriyatini belgilaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish yo'nalishlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun zaruriy hamda yetarli shart-sharoitlarning yaratib berilishi oliy o'quv yurtlari rahbarlari va professor-o'qituvchilariga ham o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi.

Bugungi sharoitda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda AKT va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim o‘rin tutadi. Talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish – bu, birinchi navbatda, faoliyatga ijodiy munosabatni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ijodkorlik mehnatga ijodiy munosabat jarayoni bilan integrativ yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarda shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarkib toptiradi. Bunda qat’iyatlilik, kreativlik, kognitivlik, tashabbuskorlik hamda mustaqillik kabi fazilatlar shakllanib boradi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: *“Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishiga erishish, ularning o‘z qobiliyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat”*, – degan fikrlari o‘rinlidir [1].

Shuningdek, talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish vositalarini izlash muammosi ta’lim muassasasi o‘quvchilarining ijodkorligini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jamiyatning rivojlanish sur’atlarining tezlashishi bilan belgilanadi. Axborotlashuv asrida talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda innovatsion imkoniyatlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda asosiy vazifa o‘qituvchilar zimmasiga tushmoqda. Bunday muhim vazifani zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, o‘z ustida doimiy ishlaydigan, bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtiruvchi, ishiga kreativ yondashuvchi o‘qituvchigina hal eta oladi.

Ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘z-o‘zidan talabani rivojlantirmasdan turib ijodiy faoliyatni tarkib toptirishi qiyin kechadi. Talabalarning ijodkorlik faoliyatiga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanishi uchun ularning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish hamda kreativ yondashish zarurligi belgilanadi. O‘quv materialini sust idrok etish jarayonida talabalarda ijodiy rivojlanish u qadar sodir bo‘lmaydi. Masalan, ijodiy faoliyatni tarkib toptirish uchun yetarli bilim, ko‘nikma va malakani egallasagina unga samarali yondasha oladi; kerakli ma’lumotlarni o‘zi eslab qolmasa, ulardan ijodiy faoliyatda yetarli foydalana olmaydi va unda hech qanday ijodiy yondashuv ko‘nikmasi shakllanmay qolishi tabiiy hol bo‘lib qoladi. Bu o‘rinda o‘quvchi va talabaning o‘z harakatlari, intilishlari va o‘z ustida

muntazam ishlashi natijasidagina kelajakda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish hamda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Zamonaviy talablar asosida talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvini ta’minlashda AKT va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki raqamli texnologiyalar foydalanuvchi manfaatlari uchun axborotlarni yig‘ish, tahrirlash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar to‘plamidan iboratligi bilan ahamiyatli sanaladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalarni ta’lim vositalarining bir qator ko‘rsatkichlari bo‘yicha turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi:

1. **Pedagogik masalalar bo‘yicha:**
   - **a)** tayanch tayyorgarlikni ta’minlovchi vositalar: elektron darsliklar, ta’lim tizimlari, bilimlarni nazorat qilish tizimlari;
   - **b)** amaliy tayyorgarlik vositalari: masalalar to‘plamlari, raqamli texnologiyalar, virtual konstruktorlar;
   - **d)** yordamchi vositalar: adabiyotlar, rivojlantiruvchi kompyuter o‘yinlari, multimediyali videodarslar;
2. **Ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha:**
   - **a)** axborot-ta’lim resurslari;
   - **b)** interfaol resurslar.

Yuqorida ilgari surilgan fikrlarni inkor etmagan holda aytadigan bo‘lsak, raqamli texnologiyalarni qo‘llash talabalarning qiziqishlarini oshirishga va ijodiy faoliyatga motivatsion yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Chunki bu talabalarning individual ta’lim imkoniyatlari hamda ehtiyojlarini maksimal hisobga olish, o‘quv mashg‘ulotlari mazmuni va shakllarini tanlashning keng imkoniyatlari ularning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan raqamli o‘quv resurslarini, individual testlarni hamda masofaviy darslarni tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

Pedagogik jarayonda raqamli ta'lim nafaqat raqamli ta'lim vositalari orqali o'quv jarayonini davom ettirish, balki ta'lim sifatini va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishga qaratilgan faoliyat turi sanaladi. Demak, o'quv jarayoniga raqamli ta'limning joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarbiya fani o'qituvchisining innovatsion faoliyatining asosiy mexanizmlaridan biri sanaladi. Raqamli ta'lim pedagogga ma'lumotni boshqarish, undan foydalanish, shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni tarqatish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, zamonaviy axborot jamiyatida pedagogning kompyuter va aloqa texnologiyalaridan, shu jumladan, radio, televizor, zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalar, podkasting, striming va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, veb-xizmatlar, mobil ilovalar hamda boshqalardan foydalangan holda keng ko'lamli kasbiy, kognitiv, hordiq chiqarish, maishiy va boshqa vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida o'rin tutadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha pedagogning kasbiy mahorati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim tizimining global axborot jarayonlariga jalb qilinganligi to'g'risida xabardorlik;
- deyarli cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga kirish va ushbu ma'lumotlarni tahliliy qayta ishlashning samarali usullarini o'zlashtirishga tayyorlik;
- innovatsion pedagogik natijalarni olish uchun zamonaviy axborot muhitida pedagogik g'oyalarni shakllantirishga imkon beradigan shaxsiy ijodiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishga intilish, shuningdek, o'ziga xos axborot muhitini yaratish;
- ilmiy va ijtimoiy tajribani birgalikda rivojlantirishga, axborot o'zaro ta'sirining barcha subyektlari bilan birgalikda refleksiyaga tayyorlik;
- ma'lumotlarni olish, tanlash, saqlash, takrorlash, taqdim etish, uzatish va integratsiya qilish kasbiy madaniyatini o'zlashtirish;
- doimiy o'zgarib turadigan axborot jamiyatida, uzluksiz ta'lim sharoitida kasbiy o'sishning muhim yo'nalishi sifatida zamonaviy interfaol telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik;

• axborot va ta'lim muhitini modellashtirish hamda loyihalashtirish, shuningdek, o'z kasbiy faoliyati natijalarini bashorat qilish qobiliyati.

Shunday qilib, bugungi sharoitda global axborot va raqamli ta'lim makoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi ishlab chiqilmoqda. Mazkur jarayon zamonaviy texnik imkoniyatlarga mos keladigan va talabaning axborot jamiyatiga barkamol kirishiga hissa qo'shishi kerak bo'lgan ta'lim texnologiyalari tarkibiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq pedagogik nazariya hamda o'quv jarayonidagi sezilarli o'zgarishlar bilan birga kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori.
3. Shodmonova Sh.S., Ibragimova G.N., Mirzayeva F.O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. – T.: SANO-STANDART, 2022.